

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK INTENSIFIKATORLARNING  
DARAJALANISHI VA DISKURSIV XUSUSIYATLARI

**Ubaydullayeva Durdonaxon Rahmonjon qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi*

**Musojonova Matluba Burhoniddin qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*Lingvistika: ingliz tili 2- kurs magistranti*

*[Bobojonovamatluba5@gmail.com](mailto:Bobojonovamatluba5@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola leksikologiyaning eng katta va eng dolzarb, shuning bilan birga eng ko'p o'rganilgan bo'limi frazeologiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan ingliz va o'zbek tilshunosligidagi, frazeologizmlarning darajalanishi va diskursiv jihatdan qiyosiy tahlil qilinib, ma'lum bir millatning mentaliteti, madaniyati, urf-odatları va an'analarini o'zida aks ettirgan frazeologik birliklar haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Iboralarni har ikkala til doirasidagi darajasini o'rganish, ularning semantik, diskursiv xususiyatlarini ochib berish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi. Ma'lumki, iboralar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviyati, madaniyati, urf-odati, turmush tarzi, tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda maqolada 20 ga yaqin iboralar o'rganilib, ularda ikki millat madaniyatining tilda namoyon bo'lishi, o'z aro diskursiv ta'siri va bog'likligi ko'rib chiqildi. Tilshunos olimlarning bu boradagi fikrlari o'rganilib, ularga umumiy xulosalar berildi.*

**Kalit so'zlar:** *fraza, frazeologizm, lingvokulturologik, diskursiv, semantika, lingvomadaniy, intensivator, intensivatsiya jarayoni.*

**Abstract:** *This article is devoted to phraseology, the largest and most relevant and, therefore, the most studied branch of lexicology. Valuable information is provided about phraseological units that reflect the mentality, culture, customs and traditions of a certain nation. Studying the level of expressions in both languages, revealing their semantic and discursive features determines the relevance of this article. It is known that expressions are inextricably linked with the spirituality, culture, customs, lifestyle and history of the people who own the language. Based on this point of view, about 20 phrases were studied in the article, and the manifestation of the culture of the two nations in the language, their mutual discursive influence and connection were considered. The opinions of linguists were studied and general conclusions were given to them.*

**Key words:** *phrase, phraseologism, discursive, semantics, linguocultural, intensifier, intensification process.*

Ijtimoiy va gumanitar fanlar diskursni til orqali ifodalangan shakllangan fikrlash tarzi sifatida ta'riflaydi. Bu jamiyatning odamlar, narsalar va ijtimoiy tashkilot haqida

fikrlash va muloqot qilish usuli, shuningdek, ushbu uch element o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fan sohasidir.

Diskurs semantikasi - bu intellektual tadqiqotning muayyan sohalarida lug'atdan qanday foydalanishimizni tahlil qilish. Bu tahlil til va tuzilish o'rtasidagi bog'liqlikni, masalan, gap va u mavjud bo'lgan kengroq kontekst o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Bunga misol sifatida gapda olmoshning qo'llanilishini keltirish mumkin, o'quvchi yoki tinglovchi uni faqat bog'langan holda tushunishi mumkin<sup>56</sup>. Zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan, diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, matnga qo'shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o'z ichiga oladi. "Diskurs" atamasi lingvistika sohasida ham juda ko'p qo'llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952-yilda nashr etilgan "Diskur tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. "Diskurs" atamasining to'liq ko'lami so'nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi. Tilshunos olim A.Pardaev talqinicha, diskurs bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo'lida voqelanishidir. Boshqa bir manbada diskurs lotincha "discursus" - muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokama talab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir. Soddaroq qilib aytganda, bu ta'rifda diskursning muhokama qilish, suhbat qilish ma'nosi ilgari suriladi. O'zbek tilshunosligida diskurs maxsus tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. Tilshunos matn va diskurs muammolari to'g'risida quyidagilarni qayd etadi: "agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko'rsatkichga asosan "og'zaki" va "yozma" sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko'rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko'rinishda tasavvur qilish qiyin masala. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli bo'ladigan bo'lsa, erishilgan natija moddiy ko'rinish olishi kerakku? Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ mazmun va so'zlovchi istagi bilan bogliq bo'lmagan holda tinglovchi idrokida (qabulida) hosil bo'ladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o'zaro qorishib, birikib, muloqotning samaraliligini ta'minlovchi omilga aylanadilar. Kommunikativ va informativ mazmunlar uygunligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e'tirof etilmoqda. Ye.S.Kubryakova qaydicha, «tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida

<sup>56</sup> <https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definitionexamples/#discourse-outside-of-literature>



diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta'rifi mavjud emas»<sup>57</sup>. Tilshunoslikda diskurs bir gapdan ham uzunroq til birligiga ishora qiladi. Diskurs so'zi lotincha dis- "uzoqda" ma'nosidagi prefiksdan va "yugurish" ma'nosini bildiruvchi "currere" o'zagidan olingan. Shuning uchun nutq "qochish" deb tarjima qilinadi va suhbat qanday o'tishini anglatadi. Nutqni o'rganish - bu ijtimoiy kontekstda og'zaki yoki yozma tildan foydalanishni tahlil qilishdir. Diskurs tadqiqotlari nutqda tilning shakli va funksiyasini uning kichik grammatik qismlari, masalan, fonema va morfemalardan tashqari ko'rib chiqadi. Gollandiyalik tilshunos Teun van Deyk rivojlanishda muhim rol o'ynagan ushbu tadqiqot sohasi tilning katta birliklari, jumladan, leksemalar, sintaksis va kontekst suhbatlarga qanday ma'no qo'shishi o'rganadi<sup>58</sup>. "Kontekstdagi diskurs "chekish ta'qiqlanadi" yoki "to'xta" kabi faqat bir yoki ikkita so'zdan iborat bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, nutqning bir qismi, ba'zi romanlarda bo'lgani kabi, yuz minglab so'zlardan iborat bo'lishi mumkin. Oddiy diskurs hajmi yuqoridagi kabi ikki o'lchov o'rtasida joylashgan<sup>59</sup>.

"Diskurs - bu keng tarixiy ma'nolarni yetkazish uchun tilning ijtimoiy jihatdan qo'llanilishi. Bu qo'llanilishining ijtimoiy sharoitlari, kim va qanday sharoitlarda qo'llanayotgani bilan belgilanadigan tildir. Til hech qachon "neytral" bo'lolmaydi, chunki u bizning shaxsiy va ijtimoiy dunyolarimizni bog'lashga xizmat qiladi."<sup>60</sup>

Diskurs fanining tilshunoslikdagi asosiy vazifasi uning expressivlikni hosil qilishidir. Ekspressiv nutq yozuvchining his-tuyg'ularini aks ettiradi. Uning asosiy e'tibori g'oyalarni ishlab chiqish va muhokama qilishga qaratilgan bo'lib, aniq faktlarga kam yoki umuman urg'u bermaydi yoki boshqalarni markaziy dalillarga ishonirishga urinishadi. Ekspressiv nutq asarlari har doim badiiy bo'lmagan; kundaliklar va jurnallar, bloglar va xotiralar ham expressiv-ta'sirchan bo'lishi buning yorqin misolidir.

Demak, diskurs so'zi barchamizga tanish bo'ldi.

Frazeologiya esa barchamizga ma'lum bo'lganidek, tildagi ma'lum bir nozikliklarni ifoda etuvchi, ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq suz birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomidir. Xo'sh unda frazeologiyadagi intensifikatsiya nima?

Intensifikatsiya darajalanish, ya'ni ma'lum bir ma'noni bo'rttirish va yoki uni ozaytirib ko'rsatish demakdir. Agar bu jarayonni oddiy so'zlarda ifodalasak,

yuz – bet - aft – Bashara – turq

jamol – chehra – yuz kabilar hozil qilinishi mumkin.

Agar ushbu intensifikatsiya jarayoni frazeologiyada kechsa,

<sup>57</sup> Kubryakova 2000:6).

<sup>58</sup> Definition and Examples of Discourse:Glossary of Grammatical and Rhetorical Terms By Richard Nordquist Updated January 30, 2020

<sup>59</sup> Hinkel va Fotos 2001

<sup>60</sup> Genri va Tator 2002

Joni uzilmoq – dunyodan ketmoq – foniyl dunyodan rihlat qilmoq, omonatini topshirmoq.

Ingliz tilida esa:

Die – pass away - depart this life - meet your end - push up the daisies - go to glory - relinquish life.

E'tibor beradigan bo'lsak, "omonatini topshirmoq" frazemasi "o'lmoq" so'zidan ko'ra nachagina keng ma'noni ifodalaydi.

Millatning dinidan kelib chiqadigan bo'lsak, inson joni – bu omonat, demak ushbu frazema omonatni o'z berguvchisiga, ya'ni Haqqa topshirmoq zaruratini anglatadi.

*“Keyingi paytlarda «xizmat vazifasini ado etayotgan paytda...» degan jumлага ko'p ko'z tushyapti. Odatda bu ta'rif Vatan sarhadlarini qo'riqlayotgan yoki el osoyishtaligini ta'min etayotgan askarlarga nisbatan ishlatilardi. Bugun ayni nisbat shifokorlarga qo'llanilayotir.*

*Jahonni zabtiga olgan tojsimon virus ongu shuurimizni o'zgartirib yubordi. Endilikda shifokorlar aynan ko'rinmas yovga birinchi qalqon vazifasini o'tashmoqda. Ular o'z moli yoki mansabini emas, balki aziz jonini garovga qo'yib, bemorlarni hayotga qaytarishga kechayu kunduz urinmoqdalar. Taassufki, urush qurbonsiz bo'lmaydi. Ko'rinmas yov bilan bo'layotgan muhorabalarlarda bugunning tom ma'nodagi qahramonlari — shifokorlarimizni ham berib qo'ymoqdamiz.*

*Kuni kecha Xiva o'z qahramonlaridan birini Haqning huzuriga kuzatdi: tajribali va fidoyi shifokor Baxtiyor Qilichev 66 yoshida omonatini Egasiga topshirdi. Sabab — o'sha: koronavirus asoratlari!”*

Kontekstda e'tibor beradigan bo'lsak, ushbu jumla faqatgina pozitiv ma'noda, pozitiv shaxslarga qo'llanilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin, bu esa diskursning asosiy mohiyatini ifoda etadi, ya'ni kontekstda uning boshqa so'zlar bilan uyg'un bo'lishi ayni muhimlikda.

Big mouth frazemasini ham tahlil qilib ko'raylik:

O'zbek tiliga katta og'iz - og'zi polvon – katta gapirmoq – katta ketmoq kabi tarjima qilinadi va yuqoridagicha darajanadi.

Ingliz tilida esa blow one's own trumpet – show off - blow/toot one's own horn kabilardir.

Ma'lumki, garchi “katta og'iz” “big mouth” iboralari ikki tikda ham bir xillik kasb etsa-da, o'zbek xalqida polvonlik maqtashga arzigulik jarayon hisoblangani uchun “og'zi polvon” iborasi qo'llanilgan bo'lsa, ingliz xalqida “trumpet” truba musiqa ashobi juda ommabop hisoblanadi va aynan ushbu frazemalarning intensifikatsiya jarayonida diskursning ahamiyati hisoblanadi, ya'ni ushbu tillarning kelib chiqishi, madaniyati va millati, urf-odat va an'analari ushbu iboralarni paydo bo'lishiga keng zamin yaratadi va asos bo'ladi.

Little lie - white lie – arziyas yolg'on  
young at heart – kichik ko'ngil



black market – qor bozor  
 a sunny smile – yorqin tabassum  
 a cash cow – foydali biznes  
 as gentle as a lamb – qo’ydek yuvosh  
 as tall as maypole - Terakdek uzun, mirzaterak

alive and well – joni temirdek

An old chestnut - siyqa gap, siyqasi chiqqan hazil

Thick skin –Terisi qalin

Thin skin –Terisi yupqa

A blind alley –Boshi berk ko`cha

Blood is thicker than water – qoni qo’shilgan, qoni bir

“The pen is mightier than the sword” – so’z qilichdek keskir

More power to your elbow – bilagingga kuch bersin

iboralari ham xuddi shunday tahlil qilinishi va diskurs bilan bog’lanishi mumkin.

Demak, diskurs va frazeologiya ham bir-biriga uzviy bog’langan bo’lib, ularning har ikkisi ham millat va tilning bir-biriga bo’gan aloqadorligi hosilasidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [1.https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definitionexamples/#discourse-outside-of-literature](https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definitionexamples/#discourse-outside-of-literature)
2. Kubryakova 2000:6).
3. Definition and Examples of Discourse:Glossary of Grammatical and Rhetorical
4. Terms By Richard Nordquist Updated January 30, 2020
5. Hinkel va Fotos 2001
6. Genri va Tator 2002
7. <https://literarydevices.com/discourse/>  
<https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definition-examples/>
8. Gumbolt V. Fon. Язык и философия культуры. М-1985
9. Sayidrahimova N., Qobulova U. Lingvokulturologiya – tilshunoslikning alohida sohasi // O’zbek tili va adabiyoti, 2015. – №4. – B. 87-91.
10. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: “O’zbekiston milliy yensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013; Xudoyberganova D.S. O’zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2015;
11. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so’z o’zlashtirish // O’zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №3. – B. 3–12; Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab... // O’zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5. – B. 3–16;

12. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: ToshDS’HI, 2017. – 254 b.
13. Rahmatullayev Sh. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. 5.Abdugaffor
14. Mamatov professor “Frazeologik birliklar tahlili: lingvokulturologik yondashuv.”
15. 6.Abdugaffor Mamatov professor “Frazeologik birliklar tahlili: lingvokulturologik
16. yondashuv.”